

of

# «DUNYO BOLALAR NIGOHIDA»

## MAXSUS POCHTA MARKALARINI CHOP ETISH UCHUN «YIL FASLLARI» BOLALAR IJODIY RASMLARI RESPUBLIKA KO'RIK-TANLOVI G'OLIBLARI ANIQLANDI

Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor, «O'zbekiston pochta» AJ, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2020-yil 15-yanvardan 15-martgacha «Yil fasllari» mavzusida maxsus pochta markalarini chop etish uchun bolalar rasmlarining respublika tanlovini e'lon qilgan edik.

G'olib bo'lgan bolalar rasmlari asosida (1-, 2-, 3- va 4-o'rinlar) «Yil fasllari» mavzusida maxsus pochta markalarining eskizlari «O'zbekiston pochta» AJ tomonidan tayyorlandi.



**1-o'rin:** «Qish» – Fozilbek Ulug'bekov, 10 yosh, Toshkent shahri, 150-umumta'lim maktabi o'quvchisi



**2-o'rin:** «Bahor» – Renata Yamoldinova, 10 yosh, Toshkent shahri, 10-sonli BMSM



**3-o'rin:** «Kuz» – Gulsanam Baxtiyorova, 11 yosh, Farg'ona shahri, 3-sonli BMSM



**4-o'rin:** «Yoz» – Nilufar Mahmudjonova, 12 yosh, Toshkent shahri, 260-umumta'lim maktabi o'quvchisi

**Bolalar rasmlari asosida chiqariladigan «Yil fasllari» maxsus pochta markalari xat va banderollarda dunyo bo'ylab tarqaladi.**



# «Online-maktab» loyihasida TA'LIMDA TA'TIL BO'LMAYDI

**Bolaligimdan o'qituvchilikka havas uyg'ongan edi. Ayniqsa, fizika, matematika fani jon-u dilim bo'lib, raqamlar sehri, turli tajribalar meni o'ziga rom etgan edi. Bunda, albatta, ota-onamning, shuningdek, Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi 9-umumta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi Abdujabbor Fattoyev singari ustozlarimning hissalarini katta bo'lgan. Men bu insonlar oldida har doim ta'zimdaman.**

Yurtimizda joriy qilingan karantin tufayli ikki oy, shundan 16 kun Prezident maktabida yashab, «Online-maktab» loyihasi doirasida dars o'tdim. 6-7-sinflarga dars o'tish barobarida bilimimni yanada boyitib bordim. Sharoit va imkoniyatlar tufayli mavzularni kengroq yoritishda internetdan yangi ma'lumotlar olib, slaydlar yaratdim. Virtual laboratoriyalardan foydalandim. Hayotiy misollar yordamida o'quvchilar qiziqishini oshirishga yo'naltirilgan «Energiyaning saqlanish qonuni», «Oddiy mexanizmlar», «Yorug'likning qaytish va sinish qonuni», «Quyosh va Oy tutilishi», «Foizga doir masalalar

yechish» mavzularini o'quvchilar yoshiga moslab o'tishimda 2018-yil Turkiyaning Edirne shahridagi Trakya universitetida bo'lib o'tgan o'quv-amaliy seminari, avstraliyalik Mark Zelman tomonidan olib borilgan testologiya bo'yicha 40 kunlik o'quv seminarlaridan olgan bilimlarim asqotdi. 2018-yil «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida qatnashib, faxrli o'rinni egaladim. Shu yili «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandim. Bu e'tibor, e'tirof menga yanada ko'proq kuch berdi. Ayni kunda to'rt nafar farzandim tarbiyasidan ortib, «Online-repetitor» hamda

«Summer camp» yozgi oromgoh loyihalarida qatnashmoqdaman.

«Summer camp» loyihasi bu uch yo'nalishdagi ingliz tili, Axborot texnologiyalari hamda «STEAM» laboratoriya ko'rinishidagi to'g'arak mashg'ulotlari bo'lib, o'quvchilarning yozgi ta'tildagi bo'sh vaqtlarini unumli va foydali o'tkazishlariga yordam beradi. Xullas, ta'tilda ham o'quvchilarimiz zerikib qolmasliklari uchun harakat qilamiz. Zero, ta'limda ta'til bo'lmaydi!



Zaynura HAMIDOVA, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabining I toifali fizika fani o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi, Xalq ta'limi fidoyisi ko'krak nishoni sohibasi

**Bolaligimda maktabga borishni juda yaxshi ko'radim. Hattoki mahallamizdagi bolalar bilan, garchi yoshimiz yetmasa ham, yakshanba kunlari maktabga borardik.**



## ONA MAKTAB

Bizni maktab juda ajoyib-da. Chekka bir qishloqni maktabida dunyoning voqealari sodir bo'ladi. Bugun shularni eslab, o'yga toldim. Har kuni sinfdoshlar bilan ko'rishishga o'rganib qolgan ekanmiz. Ochig'i, sinfdoshlarim bilan ko'p urishsak, talahsak ham besh daqiqaga bormay yana o'sha-o'sha – qadrdonlarga aylanib ketardik. Menimcha, bu qishloq bolalariga xos bo'lgan kek saqlamaslik fazilati tufayli

bo'lsa kerak. Bugun ana shu sinfdoshlarimning, shuningdek, ustozlarimning qadri qay darajada baland ekanini his qildim. Matematika ustozimiz Kamol aka chin ma'noda donishmand inson. Hamma o'qituvchilarimiz yaxshi. Ammo ularning orasida matematika ustozimizning o'ni boshqacha.

### YORQINJON TALABA BO'LDI

O'zbekiston yoshlar ittifoqi faol a'zolarini imtihonsiz, Davlat granti asosida oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilinishidan xabaringiz bo'lsa kerak-a? Joriy yilda sirdaryolik tengdoshingiz, viloyat Yoshlar ittifoqi sardori Yorqinjon Hayitboyev ana shunday imtiyozga ega bo'ldi. Uning faolligi tufayli 2019-yil sirdaryolik sardorlar «Eng namunali sardorlar Kengashi» tanlovida 1-o'rinni egallagan bo'lsa, joriy yil uning o'zi «Yil sardori» ko'rik-tanlovida 1-o'rinni egalladi. Yorqinjon Guliston Davlat universitetining eng faol talabasi bo'lishiga ishonamiz.

**TAHRIRIYATDAN**

«Ustoz-ustoz» o'ynardik. Mana, shunga ham o'n uch yil bo'libdi. Umr o'tar, vaqt o'tar, deganlari shu bo'lsa kerak. Kechagina maktab partasida o'tirib, tezroq tanaffus bo'lishini kutadigan, daqiqa sayin soatiga qaraydigan ba'zi o'quvchilar ham bugun maktabni sog'in-yapti...

O'zim matematikadan a'loga o'qimasam ham shu ustozimizning hikmatlarini, ri-voyatlarini tinglashni, darslarni qiziqarli tarzda o'tishlarini yaxshi ko'raman. Gulnora opa ismli ustozimiz bo'lardi. Hozir boshqa maktabda ishlayaptilar. O'ylab qarasam, shu ustozimizning qadri hech bilmagan ekanmiz. Umuman, biz o'quvchilar maktabning qadriga yetmagan ekanmiz. Televizorga termilib, onlayn dars o'tishning mashaqqatini his qilgandagina ustozlarimiz qadri bilindi...

Uydamiz, lekin ko'nglimiz maktabda, o'yayollarimiz qadrdon go'shamizda. Qadri qimmat bilim maskanimizning qadri arzon bilgan ekanmiz. Bugun o'qish davrida intiq kutganimiz o'sha tanaffuschalik daqiqalarni maktabda o'tkazishga intiqmiz. Ha, biz insonlarning tabiati chindan ham g'alati. Oldimizdagingin qadri bilmaymiz-u, uzoqlashgach aziz bo'ladi. Lekin unda kech bo'lar ekan...

Qadringga kech yetgan o'quvchilaringni kechir, maktabjon!

Senga eltar yo'llar tuproq bo'lsa ham, Bag'rikeng, poklikka timsol – matlubim. Qancha ta'riflasam, shuncha qisqa, kam, Seni sog'in-yapmiz, ona maktabim!

**Yorqinjon HAYITBOYEV,**  
Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi  
15-umumta'lim maktabi o'quvchisi

#### TUZATISH

Gazetamizning 1-iyun, 17-son 2-sahifada berilgan «Darsingizni maqtashdi» deb nomlangan maqolada 84-umumta'lim maktabi 81-deb o'qilsin.



# «MENING YANGI QAHRAMONIM» RESPUBLIKA INSHOLAR TANLOVI G'OLIBLARI ANIQLANDI:

Marjona RASHIDOVA, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi 3-umumta'lim maktabi 2-sinf o'quvchisi, «Eng zo'r asar» inshosi uchun.

Oxunjon MADRIMOV, Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi, «Qoravoyning sarguzashti» inshosi uchun.

Azizbek ABDUMALIKOV, poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 202-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi, «200 tilga tarjima qilingan asar» inshosi uchun.

Iroda XOLBEKOVA, Jizzax shahridagi Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabining 9-sinf o'quvchisi, «O'zligimni anglatgan qahramon» inshosi uchun.

Shirin BAXSHILOYEVA, Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 35-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi, «Elga sadoqat – oliy jasorat» inshosi uchun.

**Hayot ne'matlari beqiyos, mo'jizasi betakror. Tirik jon borki, barchasida mo'jiza yashiringan. Insoniyat ham hayotning bir mo'jizasi, ong ato etilgan yagona mavjudot. Bizga «Qanday ne'matlar egasigan?», deya savol berishsa, odatda «Tinchlik, sog'lik, bag'ributunlik, dasturxonimiz to'kin-sochinligi, xonadonimiz obodligi», deymiz. Lekin asosiy ne'matni unutilib qo'yamiz. Bu Alloh bizga omonat deb bergan va biz hali g'animatimiz ekanligini anglab yetmagan – ONA.**

## ONAMIZGA MEHRLIMIZMI?

Inson borki, orzu qiladi. Kerak bo'lsa, orzusiga yetishish ilinjida hamma narsadan voz kecha oladi. Ammo dunyoda yagona zot borki, u biz – farzandlari uchun o'z orzularidan voz kechgan. Unda adog'i yo'q muhabbat, tog'lardan ulkan sabr-qanoat, bahodirlar matonati, donishmandlar bashorati mujassam.

Afsuslar bo'lsinki, oramizda bu buyuk zotning qadriga yetmaydiganlar ham yo'q emas. Mushtipar onasini «Qariyalar uyi»ga olib borib qo'yayotganlar qancha yoki bo'lmasa, bir hovlida tursa-da,



o'z'g'orini bo'lak qilib olgan yuzsiz farzandlar qancha nafsining quliga aylanib, «nobakor» degan nom olib, onasining boshini egganlar qancha...

Bunday kimsalarga qaratilgan: «Ey, nobop farzand, sen mehribon validangni uyingga sig'dirmayotgan bir paytda, qayerdadir onasining bir soniyalik mehri qancha bor bisotini, mol-mulkini, dunyosini almashishga tayyor insonlar bor», degingiz keladi. Sen tirik onangni

o'z hovlingda «begona»ga chiqarganingda, qaysidir qabristonda qabr ustiga boshini

qo'yib, soatlab yig'layotgan, onasini tiriklik chog'ida qadriga yetmagani, e'zozlamagani uchun afsus-nadomatlar chekayotgan insonlar bor.

Dunyoning bor boyligini, xazinasini yig'sang ham, bir kunlik ona bedorligining tovonini to'lashga yetmaydi. Nahot, biz volidimizga dunyolarini emas, ozginagina mehr bera olmasak. Biz uchun hamma narsaga qodir, insonni xursand qiladigan nimadir qila olmasak?!

**Hurmatoy NISHONBOYEVA,**  
Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumanidagi  
22-umumta'lim maktabi o'quvchisi

**OTA-  
ONANGIZ  
BILAN  
O'QING**

## DARSLIGINGIZDA XATOLAR BOR...MI?

**«O'quvchi, eng avvalo, chiroyli bezatilgan, imloviy xatolarsiz, o'qishga, olib yurishga qulay bo'lgan darsliklar bilan ta'minlanishi kerak»...**

Bu fikrga to'liq qo'shilasiz, shunday emasmi, aziz o'quvchi? Agar siz foydalanayotgan darsliklar og'ir, buning ustiga imloviy xatolar bilan chop etilsa, bu hech qanday qolipga to'g'ri kelmaydi, albatta. Axir siz darslikdan nafaqat bilim olasiz, balki kelajakda undagi ma'lumotlarga asoslangan holda ilmingizni mustahkamlaysiz. Ayrim darsliklarda turli imloviy xatolar bilan birga ma'lumotlarda ham kamchiliklarga yo'l qo'yilayotgani haqidagi gaplar quloqqa chalinib qoladi, gohida. Keling, ularning ayrimlariga to'xtalsak:

Buxoriy hazratlarining to'plagan hadislarining sonining 5-sinf adabiyotida 7 397 ta deb keltirilgan bo'lsa, yangi chop etilgan 9-sinf adabiyotida esa 7 275 deb keltirilgani o'quvchilarning ikkilanishiga olib keladi. Ayniqsa, oy nomlarining (sentyabr, oktyabr) har xil adabiyotlarda turlicha talqin qilinishi nafaqat

o'quvchilarni, balki kattalarni ham o'ylantirib qo'yadi. Yuqoridagi kamchilik va xatolarning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-martdagi «Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga binoan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni tayyorlash, nashr etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, shu jumladan, ularda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilishining oldini olish, davlat buyurtmasiga asosan tayyorlanadigan darsliklar va o'quv-metodik majmualardan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqlar Xalq ta'limi vazirligiga o'tkazildi.

Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlik huzuridagi Respublika ta'lim markazi tomonidan darslik mualliflari va tegishli nashriyotlar hamkorligida o'quvchilarni sifatli darsliklar bi-

lan ta'minlash borasida tegishli ishlar olib borilmoqda.

2020–2021-o'quv yilida umumta'lim maktablarining 1-, 4-, 5-sinflari uchun jami 558 nomdagi 27,9 mln darslik va metodik qo'llanmalar chop etilishi ko'zda tutilgan.


Darsliklarni zamon talablari darajasida, asosiy, imloviy xatolarsiz, o'quvchilarning yoshiga mos ravishda nashrga tayyorlash va chop etish o'ziga xos murakkab jarayon hisoblanadi. Shu bois, bu borada jamoatchilik fikrini, shuningdek, darsliklar bilan ishlayotgan amaliyotchi o'qituvchilar hamda ota-onalarning ham fikrini o'rganish ko'zda tutilgan. Shu maqsadda, Respublika ta'lim markazi tomonidan internet tarmog'ida @darslikka\_taklif\_bot telegram kanali ochildi. Ushbu kanalga ayni damda amalda bo'lgan hamda joriy yilda

yangidan yaratilib, nashrga tayyorlanayotgan darsliklarga – o'zbek, rus va ingliz tillarida taklif yuborish mumkin.

Ushbu kanalning maqsad va vazifalarini to'liq ochib berish niyatida Respublika ta'lim markazi tomonidan onlayn videokonferensiya o'tkazildi. Unda yuqoridagi fikr-mulohazalar ilgari surildi.

Maktab davrida har kungi hamrohingizga aylanadigan darsliklar borasida sizning ham taklif va mulohazalaringiz bordir? Takliflaringizni internet tarmog'ida @darslikka\_taklif\_bot kanali orqali bildirishingiz mumkin. Biz esa yangi o'quv yili uchun chop etiladigan yangi darsliklar borasida fikr-mulohazalaringizni kutib qolamiz.

O'z muxbirimiz





## GO'ZALLIK SIRLARI

O'SMA QO'YIBDI  
QOSHIGA...

Qaro qoshing,  
qalam qoshing,  
Qiyiq qayrilma  
qoshing qiz.  
Qilur qatlimg'a  
qasd qayrab –  
Qilich qotil  
qaroshing qiz...



Sevimli shoirimiz O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning ushbu misralari sizga yaxshi tanish bo'lsa kerak-a?! Sakkiz qatordan iborat, hamma so'zlar q harfidan boshlanuvchi ushbu she'rda oshiq yorining qora qoshi-yu kipriklarining o'qligiga ishora qiladi. Zero, o'zbek qizlarining husn-u latofati haqida so'z borganda, albatta, qoshi qora, ko'zi qora, kiprigi qaldirg'och, sochlari sunbul, deya ta'riflanadi.



Aziz qizlarjon, sochlar, kiprik va qoshlarni o'stirishning o'ziga xos tabiiy vositalari borligidan xabaringiz bor-a? Bugun ana shunday vositalardan biri – o'sma haqida qisqacha ma'lumot bermoqchiman.

Qadimdan momolarimiz o'smani siqib, suvini qosh va kipriklari-ga surtishgan ekan. Uni quritib basma tayyorlashgan va qish oylarida undan foydalanishgan.

O'smaning foydali xususiyatlari juda ko'p ekan. Ulardan biri o'sma zamburug'larni o'ldirib, to'kilgan kiprik va qoshlar il-dizlarni quvvatlantirish xususi-yatiga ega ekan. Agar har kuni ko'z va qoshlaringizga o'sma qo'ysangiz, ikki haftada ular sezilarli darajada qalinlashadi, qorayadi. Shuningdek, sochlarga ham o'sma surtib qo'yib, yarim soat o'tib yuvilsa, sochlar o'sadi va tolalari qalinlashadi.

Shu bois bo'lsa kerak, bu-vijonim har yili hovlimizning bir chetiga o'sma ekadilar. Ushbu tabiiy bo'yoq mo-molarimiz-u jajji qizaloq-larimizga ko'rk beradi. U pardo borasida bizlarga ko'makchidir. Yangi siqil-gan o'sma suvining yana bir foydali jihati shundaki, u ko'zlarni ravshanlashti-radi, undagi infeksiyalarni o'ldiradi. Qovoqlarga ham zeb berib turadi. O'sma barg-larini quyosh nurida biroz so'ltgach, siqamiz. So'ng, suvini qoshlarimizga sur-tamiz. Buvijonim biz – nevara-yu evaralarini yig'ib, qoshimizga o'sma qo'yishni o'rgatadilar.

Dugonajonlar, qosh va kipriklar-ingiz, sochlaringiz quyuc, qora, uzun bo'lishini istasangiz, o'sma qo'ying.

**Muhtaram HASANOVA,**  
Farg'ona viloyati, O'zbekiston  
tumanidagi 68-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi

## ENG ULUG' UNVON

**Biz har yili yozgi ta'tilni katta buvijonim Muyassar ona xonadonlarida o'tkazamiz. Bu yil yurtimizda karantin e'lon qilinganligi sababli biz qishloqqa ta'tildan ancha avvalroq ko'chib keldik.**

Bu xonadonda ko'pgina medal-lar sohibi, G'ijduvonda tarixiy muzey tashkil et-gan buyuk ustoz katta bobojonimiz Erkin Latipov biz uchun kutubxona, sport maydonchasi, hayvonot burchagi, ustaxona va bog' tashkil etganlar. Oliy toifali o'qituvchi, Xalq ta'limi a'lochisi, «Kuz tarovati», «Porloq istiqloq nashidasi», «Qalb gavhari», «Umidli dunyo», «Oila kat-ta qo'rg'on» nom-li kitoblar muallifi bo'lgan buvijonim Muyassar Ataboboyeva bu yil 85 yosh-ni qarshilamoqda-lar. Buvijonimning besh nafar farzand-lari ham oliy ma'lumotli. Botir aka sport ustasi bo'lganliklari

uchun bizga sportda murabbiylik qiladilar. Shavkat aka kompyuter



va texnika saboqlaridan onlayn dars o'tdilar. Nasiba va Nargiza opamlar ona kasbi davomchilari. Ular bizga rus, ingliz va fransuz tillarini o'rgatishyapti. O'tkir aka esa texnolog. Ke-linoyimizdan esa tikish, to'qish va pazandalik sirlarini o'rgan-yapmiz. Muyassar onaxonimiz bizga biror kasb egasi bo'lib, jamiyat rivojiga hissa qo'shish uchun tinimsiz izlanishimiz, o'qib-o'rganishimiz kerakligini uqtiradilar.

Men shunday ibratli oilada, shunday ajib Vatanda yashash, shunday ulug' xalqning farzan-di bo'lish eng buyuk unvon ekanligini his etdim.

**Samira ALIMOVA,**  
Buxoro viloyati, G'ijduvon  
tumanidagi 5-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi



**Eng kichik nabira Safina  
Narzullayeva buvijonisiga  
o'xshashni orzu qiladi.**

## USTOZIM

Otamdek ulug'im,  
Onamdek hokisorim,  
Hayot yo'llarida  
Sizdursiz charog'bonim.

Baxtimsiz, iftixorim,  
Siz-la to'kis jahonim.  
Ma'rifat bo'stonida  
Sizsiz asl bog'bonim.

Xizmatingizda bo'lgum,  
Tanda bor ekan jonim.  
Qancha madh etmayin, oz,  
Ustozim, sizga ta'zim!



**Aziza HUSANOVA,**  
Navoiy shahridagi 8-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi






Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

COMPARATIVE FORMS OF ADJECTIVES

Choose adjectives from the list and fill in the blanks with the comparative forms of them to complete the sentences.



Adjectives: cheap; expensive; healthy; tall; slow; noisy; dangerous; heavy; strong; beautiful; fast; hot

1. Skyscraper is \_\_\_\_\_ than a house.
2. An elephant \_\_\_\_\_ than a mouse.
3. A plane is \_\_\_\_\_ than a train.
4. A bicycle is \_\_\_\_\_ than a car.
5. Hang gliding is \_\_\_\_\_ than golf.
6. A turtle is \_\_\_\_\_ than a rabbit.
7. A weightlifter is \_\_\_\_\_ than postman.
8. Eating fruit is \_\_\_\_\_ than eating fast food.
9. A diamond ring is \_\_\_\_\_ than a copper ring.
10. The princess is \_\_\_\_\_ than the witch.
11. Summer is \_\_\_\_\_ than winter.
12. A city is \_\_\_\_\_ than a village.



Zilola SIROJIDDINOVA,

The teacher of school № 41 in Angren city, Tashkent region

FRIENDSHIP

Find and circle all of the words that are hidden in the grid. The words may be hidden in any direction.

S	E	S	S	E	N	E	S	O	L	C	H	A
N	E	N	S	B	S	S	E	N	D	N	O	F
G	E	C	E	O	O	F	N	B	U	D	D	Y
O	I	O	N	L	Y	Y	A	D	N	E	L	S
O	E	R	I	A	N	T	F	V	T	O	N	L
D	D	O	L	S	T	E	L	R	O	O	L	O
T	I	S	D	F	S	N	S	A	I	R	A	A
I	F	H	N	I	R	K	I	N	Y	E	P	A
M	N	A	E	U	N	I	A	A	T	O	N	E
E	O	R	I	A	F	P	E	H	U	K	L	D
S	C	E	R	N	M	U	E	N	R	Q	F	E
C	C	P	F	O	P	L	P	O	D	U	C	A
A	N	F	C	A	P	N	N	E	D	P	O	A

- Acquaintance
- Boyfriend
- Buddy
- Closeness
- Companions
- Confide
- Favor
- Fondness
- Friendliness
- Fun

- Girlfriend
- Good times
- Help
- Lend
- Loyalty
- Pal
- Pranks
- Share



BIRBAL RETURNS HOME

(Reading time)

Birbal was in Persia at the invitation of the king of that country. Parties were given in his honor and rich presents were heaped on him. On the eve of his departure for home, a nobleman asked him how he would compare the king of Persia to his own king.

«Your king is a full moon,» said Birbal. «Whereas mine could be likened to the quarter moon».

The Persians were very happy. But when Birbal got home he found that Emperor Akbar was furious with him.

«How could you belittle your own king!» demanded Akbar. «You are a traitor!»

«No, Your Majesty», said Birbal. «I did not belittle you. The full moon diminishes and disappears whereas the quarter moon grows from strength to strength. What I, in fact, proclaimed to the world is that your power is growing from day to day whereas that of the king of Persia is about to go into decline».

Akbar grunted in satisfaction and welcomed Birbal back with a warm embrace.



PROVERB ABOUT FRIENDSHIP

A real friend is one who walks in when the rest of the world walks out.

False friends are worse than open enemies.

A friend at hand is better than a relative at a distance.

Friendship is love with understanding.

A man who has friends must himself be friendly.

A friend's eye is a good mirror.

INTERESTING FACTS

Your brain uses 10 watts of energy to think, and does not feel pain.



Of all the oxygen you breathe 20% of it is used by your brain.

The average person spends two weeks of their life waiting at traffic lights.



In a room with 23 other people, there is a 50% chance that two of the people in the room will share a birthday.



Muhammadsharif FAYZULLAYEV



**USTOZLARIMGA!**

(Jasur Usarov, Mukambar Xaitova,  
Umida Narzullayeva opalarimga)

Onam kabi mehribon,  
Otam kabi qadrdon,  
Doim bo'ling sog'-omon,  
Siz, aziz ustozlarim,  
Siz, munis ustozlarim.

Qalbingizda ziyo bor,  
Ilm otlig' dunyo bor,  
Baland tole bo'lsin yor,  
Siz, aziz ustozlarim,  
Siz, munis ustozlarim.

Qadamlaringiz masrur,  
Yuzingizdan yorug' nur,  
Sabog'ingiz misli dur,  
Siz, aziz ustozlarim,  
Siz, munis ustozlarim.



Bizga ibrat o'zingiz,  
Purma'nodir so'zingiz,  
Yorug' bo'lsin yuzingiz,  
Bag'ri osmon ustozlarim,  
Qalbi bo'ston ustozlarim.

**Marjona DO'NANBOYEVA,**  
Toshkent viloyati, Zangiota  
tumanidagi 5-umumta'lim mak-  
tabining 9-«B» sinf o'quvchisi

**YETMISH YOSHLI BOBO**

Kechir meni, dalalar,  
Izim tushmas bag'riga.  
Faqat turib uzoqdan,  
O'ylay sen haqingda.

Kechir meni, Yonbuloq,  
Kechir meni sharshara.  
Va'damda turolmadim,  
Borolmadim bir bora.

Faqat shirin xotira,  
Yuragimni ezadi.  
Mana, yana bahorim,  
Bag'ringinang kezadi.

Unib-o'sib, g'unchalab,  
Ochiladi tog'lola.  
Faqat bag'ring ko'rolmas,  
Yetmish yoshli bir bola.

Bolaligim — Tovoqsoy,  
Tog'ida qolib ketdi.  
Yillar meni keksalik,  
Bag'riga olib ketdi.

Ochilmagan tog' lola,  
Aytolmadi xayrini.  
Sog'inaman bugun, ha,  
O'sha kunlar sayrini.

Bolaligim olisda,  
Qariligim hamnafas.  
Bolalarni ko'rganda,  
Yodga tushsa, deymen, bas.

**Hamidulla MURODOV,**  
Toshkent viloyati,  
Bo'stonliq tumani

**«AVVAL MATEMATIKA, KEYIN HAMMASI» TURKUMIDAN****MATEMATIKA - ULKAN XAZINA**

Aziz o'quvchilar, matematika fanining sir-sinoatlari asrlar mobaynida insoniyatni hayratga solib kelmoqda.  
So'zimizning isboti tariqasida quyidagi hikoyatni keltiramiz.

Bolaligidan matematika fanini puxta o'zlashtirgan donishmand yigit bir qishloqdan o'tayotib, cho'ponga yo'liqibdi. U bilan qilgan qisqa suhbatdan qishloq aholining nochorlikda yashashi bu yerlar — yaylov, yer, suv, qo'y-yu qo'zilar hammasi shu qishloqdagi bir sudxo'r bo'g'ga tegishli ekanini bilib olibdi.

Yigit qishloq aholisini nochorlikdan qutqarish chorasini izlabdi. Erta tongda boy yuradigan yo'l yoqasida xaltachaga solingan tilla tangalarni jaranglatib o'tiribdi. O'tib borayotgan boy bu yoqimli ovozni eshitib to'xtabdi va yigitni suhbatga tortibdi. Donishmand qo'lidagi xaltachadan bir siqim oltin tangalarni olib, boyga ko'rsatibdi. Oltinlarni ko'rgan boy ularni o'zlashtirib olish payiga tushibdi. Uning maqsadini sezgan donishmand, «Boy ota, qani edi shunday bir kishi topilsa-yu, men unga har kuni 100 ming tilla tanga bersam, u esa menga birinchi kuni 1 dona, keyingi kunlari esa oldingi kundagidan 2 marotaba ko'p tilla tangalar berib borsa... Shoyad shunda yaqin atrofdagi Karvonsaroyda saqlanayotgan «yukim» biroz yengillashsa...», debdi. Bu taklifni eshitgan boy shoshib qolibdi va:

— Mana, men-da o'sha kishi, bolam, sizga qancha yordam kerak bo'lsa, beraman, — debdi.

— Boy ota, men bu yerlarda uzoq qolib ketishim kerak emas, kelishuvni bir oy, ya'ni 30 kungacha davom ettiramiz, — deya o'z shartini aytibdi yigit.

Ular bu kelishuvni Qozi kalondan rasmiylashtirib olishibdi.

Hisob boshlangan shu kuni boy:

— Mana, o'g'lim, sizga, — debdi bir tilla tangani kulgi va kinoya aralash donishmandga berib.

— Rahmat, boy ota, mana bular sizga, — donishmand shunday deb xaltachadagi yuz ming tilla tangalarni boyga beribdi. Ertasi kuni boy yana:

— Mana, bolam, sizga ikki tilla tanga, — desa unga javoban donishmand:

— Mana, sizga yana yuz ming tilla tanga, — deb xaltachani boyga uzatibdi.

— Mana, o'g'lim, sizga kelishuvimizdagidek to'rt tilla tanga, — debdi boy uchinchi kuni.

— Mana, sizga yana yuz ming tilla tanga, — debdi donishmand unga javoban. To'rtinchi kuni boy donishmandga 8 dona, beshinchi kuni 16, oltinchi kuni

asosan yana to'qqiz kun borligini o'ylab, nima ish qilib qo'yganini anglab, o'zini qo'yarga joy topolmay qolibdi. Uning otasi yoshligida o'qituvchi yollab matematikadan saboq oldirmoqchi bo'lganida, ustozini mensimagani, kitob o'qishni xohlamagani ko'z oldidan o'ta boshlabdi, afsus-nadomat chekibdi. Ko'ngli behuzur bo'libdi. Hisobdagi mablag'ni to'lashga

jami boyligi — yer, suvlari, yaylovlar, qo'y-qo'zilar ham yetmasligini o'ylab, ko'zoldi qorong'ulashib, yuragini changallaganicha yerga yiqilibdi... Mash'um voqeadan xabar topgan Qozi hayratga tushib, donishmandni huzuriga chaqiribdi. Donishmand Qoziga barcha hisob-kitoblarni osonlik bilan tushuntirib beribdi. Xullas, boy unga shu 30 kunda jami 1 mlrd 85 mln 296 ming 601 dona tilla tanga berishi kerak bo'lsa, donishmand esa boyga 3 mln gina, ya'ni u boyning donishmandga beradigan tangalaridan 362 marta ortiq ekanini aytib beribdi. Shunda Qozi donishmandning bilimi va aqliga qoyil qolibdi va boyning barcha mol-mulklarini donishmandning nomiga xatlab beribdi. Donishmand esa ularning barini qishloq aholisiga teng taqsimlabdi.

Maqsadiga yetgan donishmand qishloq aholisi bilan xayrlashib, xotirjamlik bilan o'z yo'lida davom etibdi.

Mana, ko'rdingizmi, aziz o'quvchilar, matematikani nechog'li muhim ekanligini, uni qunt bilan o'rganishga intiling.

Uning jadvalini yuqorida keltirilgan qonuniyat asosida chizing va xulosa chiqaring.

**Rahmatulla KARIMOV,**  
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi  
81-umumta'lim maktabi o'qituvchisi,  
O'zbekiston Respublikasida xizmat  
ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi



32, yettinchi kuni 64, sakkizinchi kuni esa 128 dona tilla beribdi. 18-kuni donishmand boyga doimgidek yuz ming tilla tanga bersa, boy unga bir yuz yigirma to'qqiz ming yetti yuz to'qson ikki (129792) dona tanga uzatibdi. Shunda boy bergan tangalari donishmand berganiga qaraganda 29 ming 792 dona ko'p ekanini tushunib qolib, sarosimalanib qolibdi. Keyingi va undan keyingi kunlarda yigitga berishi kerak bo'lgan tangalarni hisoblab vahimaga tushibdi: 19-kuni 259 584 dona, 20-kuni 519 168 dona, 21-kuni esa 1 038 336 dona tilla tangalarini berishi kerakligini, kelishuvga



**Mana, o'lkamizga yoz fasli ham kirib keldi. Bu faslda yurtimiz tabiatida o'ziga xos o'zgarishlar bo'ladi. Men bugun geografiya o'qituvchisi sifatida sizga dars o'tmoqchi emasman. Ammo, nazarimda, ona tabiatimizni o'rganish, undan bahra olish Sizdek qiziquvchan bolalar uchun hamisha qiziqarli va zavqli deb o'ylayman.**

## O'ZBEKISTONNING SO'LIM GO'SHALARI

O'zbekistonning so'lim va shifobaxsh go'shalari yoz faslida yanada ko'zimizni quvnatadi. Ona zamini-mizning yerosti tuzilishi betakroridir. Shunga monand tabiati ham, boyliklari ham xilma-xildir. Tog' mintaqasi O'zbekistonda adirdan baland, ya'ni dengiz sathidan 1000–1200 metrdan baland bo'lgan joylarga to'g'ri keladi. Tog'larda yoz nisbatan qisqa vaqt davom etib, yog'ingarchilik bilan o'tadi. Tuprog'i nihoyatda chirindiga boy bo'lgani uchun ham tog'larda turli meva va rezavorlar o'sadi. Tog'larning mo'tadil havosi, g'aroyib o'simlik va hayvonot dunyosi hamda shifobaxsh buloqlari insonni o'ziga maftun etadi. Toshkent viloyatidagi Chimyon, Farg'ona vodiysidagi Shohimardon, Nanay, Quvasoy, Chortoq



Ushbu surat karantin davridan avval olingan.


dam olish maskanlari ana shunday go'shalardan hisoblanadi. Ammo bu yil yurtimizda e'lon qilingan karantin tufayli tabiatning bu go'zalliklaridan bahramand bo'lish uchun sayr-u sayohatlar davrida ehtiyoj choralari talab etiladi. Biz o'tgan yillar davomida dam olish uchun tog'larga chiqqanda, turli oziq-ovqat mahsulotlaridan bo'shagan yelim idishlar-u chiqindilar bilan atrof-muhitga zarar yetkazdik. Undan bahra oldig-u, ammo uni hammamiz ham qadrlay olmadik. Xulosa chiqarishning esa erta-kechi bo'lmaydi, aziz o'quvchim!

**Gulchehra NURMATOVA,**  
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 231-umumta'lim maktabining geografiya fani o'qituvchisi

## IJODKORLIK MASOFA TANLAMAYDI

Gazetamiz sahifalari orqali poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300-DIUM iqtidorli o'quvchilari bilan ko'p bora tanishgansiz. Bular maktab «Kichik akademiya»si a'zolari hisoblanadi. Ta'lim maskani qoshida faoliyat olib borayotgan ushbu ijodiy, ixtiyoriy uyushmaga Malika Abdullayeva rahbarlik qiladi. 2005-yildan buyon ish olib borayotgan maktab «Kichik akademiya»si a'zolari soni yil sayin ortib bormoqda. Ushbu uyushma tarkibiga kirgan «Yosh jurnalist» guruhi a'zolari karantinli ta'til davrida ham o'z iste'dodlarini namoyish etishdan to'xtashgani yo'q. Gazetamizning ushbu sonida tengdoshlaringizning ijod namunalari berishni lozim topdik.

### MAKTABDOSHLAR BIR-BIRINI MAQTAYDI




**Murodjon OMONQULOV,**  
5-sinf o'quvchisi

Maktabimizda iqtidorli o'quvchilar juda ko'p. Ularning qobiliyati ta'lim maskanimizdagi tajribali, fidoyi, izlanuvchan ustozlarning mehnatlari orqali rivojlan-tirilmogda. 2018–2019-o'quv yilida maktabimizni bitirgan o'quvchilarning 71 foizi oliy ta'lim muassasalari talabalari bo'lgani juda quvonchlidir.

Shuningdek, Toshkent shahridagi Prezident maktabiga qabul qilingan iqtidorli yoshlar orasida ham bizning maktabimiz o'quvchilari ko'pchilikni tashkil qiladi. Ulardan biri Abdulbosit Sharifjonov. Uning iqtidoriga va tinib-tinchimasligiga tengdoshlarining ko'pchiligi havas bilan qarashmogda va undan o'rnak olishga intilishmogda.

Respublikada sportning karate turi bo'yicha chempion aniqlandi. Kim ekan u azamat, deysizmi? Bu mening maktabdoshim Sultonali Raupovdir. Ozarbayjonda o'tkazilgan xalqaro musobaqada yuqori o'rinni egallagan tengdoshim Sultonali 6-«J» sinfda o'qiydi. U o'qishda ham, sportda ham doimo ilg'or. Hamisha ustozlar ishonchini oqlashga harakat qiladi.

Aziz tengdoshlar! Biz ham Sultonali kabi maqsad sari olg'a qadam tashlab, yuqori marralarga erishaylik!



**Shahina MUHAMMADIYEVA,**  
5-sinf o'quvchisi



**Xadicha TOSHMATOVA,**  
5-sinf o'quvchisi

Samandar shosha-pisha ustozining yoniga bordi. U g'alabasi haqidagi xabarni birinchi bo'lib ustoz Zubayra opaga aytishni istardi.

– Ustoz, meni tabriklasangiz bo'ladi, chempion bo'ldim!

– Tabriklayman, – dedi Zubayra opa quvonchi ichiga sig'may. – Kelajakda bundan-da yuqori natijalarga erishgin, bolam!

Samandar G'aniyev maktabdoshimiz. U Turon yakkakurash sport majmuasiga qatnashadi. O'zbekiston chempionatida yuqori o'rinni, Samarqandda o'tkazilgan viloyat ochiq birinchiligida esa 65 kg vazn toifasida 3-o'rinni egallagan. Samandarning izlanuvchan va tirishqoqligini ustozlar bizga namuna qilib ko'rsatishadi. Chempion tengdoshimiz esa bu xislatlarni unga ustozlarimiz shakllantirishganini bot-bot ta'kidlaydi.



Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi  
34-umumta'lim maktabi o'quvchilarining

## «UYDA QOLING!»

shiori ostidagi ijodiy ishlaridan namunalar.



Abdulvosid MUHAMMADOV,  
5-«A» sinf o'quvchisi



Iroda ORTIQBOYEVA,  
5-«A» sinf o'quvchisi



Zebo SANGILOVA,  
2-sinf o'quvchisi




Gulshanoy FAXRIDDINOVA,  
1-«B» sinf o'quvchisi



Gulbegim NARZULLAYEVA,  
5-«A» sinf o'quvchisi



Odina JO'RABOYEVA,  
7-«A» sinf o'quvchisi



Dilnura ABDUXOLIQOVA,  
1-«B» sinf o'quvchisi



- TEST**
1. Amazonka daryosi necha mamlakat hududidan oqib o'tadi?  
A. 9 ta  
B. 10 ta  
D. 11 ta
  2. Komodo milliy bog'i nechta katta orolni jamlagan?  
A. 3 ta  
B. 4 ta  
D. 5 ta
  3. AQSHning Ozodlik haykalinin og'irligi necha tonna?  
A. 50 tonna  
B. 40 tonna  
D. 30 tonna
  4. Eyfel minorasining mashhur muhandisi Gustav Eyfel necha yil davomida qurib bitkazgan?  
A. Besh yil  
B. Ikki yil  
D. To'rt yil
  5. Al-Haram masjidining ilk qurilish ishlari nechanchi yilda boshlangan?  
A. 570-yilda  
B. 638-yilda  
D. 980-yilda

ZUHRA tayyorladi



Pazanda qizga!

## TVOROG TO'LDIRILGAN OLMA



Kerakli masalliqalar:

4 dona o'lma,  
400 gr tvorog, 80 gr shakar, 4 dona tuxum, 20 gr suxari, 1 osh-qoshiq limon sharbati, 10 gr limon po'stlog'i.

Tayyorlanishi:

olmalarning ichi o'yilib, ichiga limon sharbati surtiladi. Tvorogga tuxum sarig'i, shakar va qirg'ichdan chiqarilgan limon sedrasi qo'shilgan massa tayyorlanib olinadi. Ichi o'yilgan olmaga ushbu aralashma solinadi. Ustidan suxari sepib, 170 darajali gaz pechiga 20 daqiqada pishiriladi.

Yoqimli ishtaha!



NARGIZA tayyorladi

BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70

**Tong yulduzi**

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir  
Feruz AADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Dilshod KENJAYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruz JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir  
Nodira NAZAROVA

Rassom  
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzillimiz va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,  
30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
e-mail: [tongyulduzi1929@umail.uz](mailto:tongyulduzi1929@umail.uz)  
telegram: [tme/tongyulduz](https://t.me/tongyulduz)  
Adadi - 4000  
Buyurtma - V 4180

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08